



ONA TILI TA`LIMIDA INTEGRATIV YONDASHUVNING METODIK ASOSI

Omonova Dildora Nekmurod qizi
Bukhara State University

Annotatsiya: Mazkur maqolada lingvistik kompetensiya va uning turlari, kompetensiyaviy yondashuv tushunchasi keng yoritib berilgan.

Kalit soʻzlar: integrative yondashuv, lingvistik kompetensiya, integratsiya, kompetensiyaviy yondashuv, ijtimoiy lingvistik kompetensiya.

Bugungi kunda ta`lim ona tilidan ta`lim mazmuni tilning barcha xususiyat va qonuniyatlari parallel ravishda soddadan murakkabga tomon, amalda qo`llash ehtiyojidan kelib chiqqan holda o`rgatishga asoslangan. Ona tili faniga shunchaki o`quv predmeti sifatida qaralmaydi. Bunda ona tili butun borliqni: tabiat, jamiyat, fanlarni, o`zlikni anglash va o`rganish vositasiga aylantiriladi. Bu esa o`z navbatida ta`limda integratsion yondashuvni talab qiladi.

Integratsiya- lotincha soʻzdan olingan bo`lib qo`shilish, yaxlitlik, kengayish ma`nolarini anglatadi. Ta`limda integrativ yondashuv fanlararo va ularning ta`limda yaxlitlanishi tushuniladi. Bundan shu narsa aniq bo`ladiki, ona tili fani ta`lim jarayonida barcha fanlarni o`rganish va o`rgatish vositasi ekanligi aniqlanadi. Nafaqat bizning ta`lim tizimimizda, jahon ta`lim tizimida ham darslarni integratsion ta`lim tizimi asosida tashkil qilish, ta`lim oluvchining intellektual salohiyatini kengaytirishga xizmat qila olishi aksioma darajasiga ko`tarilgan. Shuni ta`kidlash joizki fanlararo aloqadorlik aro anglash va anglatish rad etib bo`lmas jihatdir.

Mazkur maqolada bugungi kunda zamonaviy yondashuv asosida ona tili ta`limida kompetensiya va uning xususiyatlari ochib berilgan va keng yoritilgan. Umumiy o`rta ta`limning amaldagi malaka talablarida “Ona tili” o`quv predmeti o`qitishning asosiy vazifalari quydagicha belgilangan:

- o`quvchi shaxsini fikrlashga, o`z fikrini og`zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qilishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;
- o`quvchilarda grammatikaga oid o`zlashtirilgan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so`zning tarkibi, so`z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni rivojlantirish);
- ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to`g`ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Integrativ yondashuv: O`zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo`lga kiritishi bilan “ta`lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, o`qituvchi, muallim VA ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish”ga yo`naltirilgan O`zbekiston Respublikasining harakatlar dasturi asosida kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini qayta tashkil qilish zarurati yuzaga keldi. Pedagogik kadrlarning yuksak professionalizmi ko`p jihatdan ta`lim muassalarida shakllantirilgan salohiyatga ega bo`lishi zarur. Bu esa ta`limda integrativ yondashuvni taqazo etadi. Integrativ yondashuv turli fanlardan olingan bilimlar, ko`nikma, malaka va tajribani hisobga olish, tayanish, integratsiya qilish, ona tilida kommunikativ, ijtimoiy kompetentlikni baravar



rivojlantirishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda ta`lim tizmida kompetensiya va uning turlari yuzasidan jahonda va yurtimizda bir qancha olimlar o`zlarining bir qancha tadqiqotlarini olib borganlar. Jumladan: E. Zeer, V. Serikov, I. Sergeev, H. Abdukarimov, N. Alimov, A. Ma-majonov, N. Muslimov shular jumlasidandir.

Zero Sharq allomasi, mutaffakiri Fariddin Attor ta`kidlaganidek “Bu ro`yi zaminda mayda narsaning o`zi yo`q, hamma narsa bir-biri bilan chambarchas bog`liq va bir-biri to`ldiradi. Taniqli didaktik olim Yan Amos Komenskiy esa: Borliqdagi bir biri bilan bog`liq bo`lgan hamma narsa, xuddi shunday tabiiy holda o`rganilishi kerak deb hisoblaydi. O`z navbatida shuni ta`kidlash joizki, ona tili darslarini integratsiyalashgan ta`lim asosida tashkil qilish dars jarayonini juda samarali bo`lishiga erishiladi va quydagi natijalarni beradi:

- ✓ dars jarayonini bir xil qolipga tushib qolishidan saqlaydi va o`quvchilarni darsga qiziqishini oshiradi;
- ✓ ta`lim beruvchi pedagogni o`z ustiga ishlashiga undaydi;
- ✓ darsda qatnashayotgan talabalarni bevosita o`z ustida ishlashiga majbur qiladi;
- ✓ ta`lim oluvchilarda mustaqil fikrlashni kuchaytiradi, bevosita o`z ustida ishlashiga undaydi;

Bu tushunchalardan biz shu narsani anglashimiz mumkinki, ta`limda integrativ yondashuv asosida dars o`tish soha mutafakkirlaridan yuksak salohiyatli, fan sohasida, o`z sohasida chuqur bilim va tafakkurni talab qiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv-kompetensiyaviy yondashuv ta`lim oluvchining uquvi, layoqati, qobilyatini ifodalaydi. Kompetensiya so`zi inglizcha so`zdan olingan bo`lib layoqatli, qobilyati kabi ma`nolarni anglatadi. DTSda belgilangan ko`ra, “kompetensiya (o`quvchining)- mavjud bilim, malaka va ko`nikmalarini kundalik faoliyatda qo`llay olish qobilyati” hisoblanadi. Ona tili kommunikativ kompetensiyasi-o`rganilayotgan ona tilida so`zlashuvchilar bilan muloqot qilishni qobilyati va tayyorgarligi, shuningdek ta`lim oluvchilarning xalqi madaniyati, ma`naviyati, milliy qadriyatlarini dildan anglash, uni anglash muloqot jarayonida taqdim eta olishni nazarda tutadi:





Ijtimoiy lingvistik kompetensiya soʻzlovchining muayyan nutqiy vaziyat, maqsad va xoxish istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, koʻnikma va malakalarini oʻz ichiga oladi;

Oʻquv-biluv kompetensiyasi taʼlim olish mustaqil bilim olish, til va til orqali madaniyatlarni oʻrganishning kompetensiyalar yigʻindisi boʻlib, zamonaviy taʼlim tizimi bilan bogʻliq boʻlgan mantiqiy, metodologik va umumtaʼlim vazifalarni oʻz ichiga oladi.

Biz yuqoridagi barcha tushunchalarni birlashtirgan holda pragmatik kompetensiya deb hisobladik.

“Ona tili boʻyicha oʻrta umumtaʼlim bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qoʻyiladigan talablar” da oʻquvchilar quyidagi kommunikativ kompetensiya lozim hisoblanadi va bu maqsadga muvofiqdir.

- oʻquvchilarni erkin fikrlashga oʻrgatish va oʻz fikrini mustaqil bayon qila olish;
- oʻz fikrini ogʻzaki va yozma shaklda oʻzbek tilining qonun qoidalariga muvofiq ravishda toʻgʻri ifodalash;
- orfografiya va punktuatsiya qoidalarini singdirish;
- ish qogʻozi koʻnikmalarini yurita olish koʻnikmalarini tushuntirish;

Kompetensiyaviy yondashuv taʼlim tizimida bilimga ishtiyoqi boʻlgan, ijodga moyilligi bor, har jabhada oʻzini koʻrsata oladigan shaxsni nazarda tutadi. Biz ona tili mashgʻulotlari jarayonida bir jihatni unutmasligimiz kerak. Oʻquvchilarga fikrlarni emas, fikrlashni oʻrgatishimiz kerak.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki:

- ✓ birinchidan oʻquvchini bevosita fanlar aro bogʻliq boʻlgan holda dars olib borish ularda ijodiylikni shakllantirishga xizmat qiladi;
- ✓ Kompetensiyaviy yondashuv eng samarali usul boʻlib, u oʻquvchida mahorat va zukkoklikni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Omonova D. N. Methodical fundamentals of linguistic competence in language teaching based on integrative approach // Middle European Scientific Bulletin. 2021. - C.55-67.
2. Omonova D. N. The Linguistic competence in language teaching based on Integrative Approach. // World Science Problems and Innovations. 2021.30.04. C.213-216.
3. Omonova D. N. Improving the methodology of developing students' linguistic competencies in mother tongue education on the basis of an integrated approach // Middle European Scientific Bulletin. 2021.april 11.474-482
4. Nekmurod qizi D.O. ” Integrativ yondashuv asosida ona tili taʼlimini tashkil etish” Boshlangʻich taʼlim sifat va samaradorligini oshirish: Strategiya, Innovatsiya va ilgʻor tajribalar.
5. Sidikova S. D. Theoretical and didactic principles of distance learning // Academia: an international multidisciplinary research journal. – 2021. – T. 11. – №. 1. – C. 541-548.
6. Shavkatovna S. D. The importance of distance learning in the teaching of " methods of teaching mathematics". – 2021.
7. Sidiqova D. Boshlangʻich sinflarda interfaol taʼlim va loyihalash texnologiyasi // Центр



- научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 4. – №. 4.
8. Shavkatovna S. D. Issues of Formation of Professional Competence of Students //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 291-294.
 9. Shavkatovna S. D. Developing Students' Professional Competencies in Distance Learning //Central asian journal of literature, philosophy and culture. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С15155.
 10. Abdullayeva F. Methodological possibilities of organization of primary school technology lessons with pedagogical technologies //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
 11. Nurillayevna, Abdullayeva Feruza. "Teaching Scientific Popular Articles in Mother Nili and Reading Literacy Courses." European journal of innovation in nonformal education 2.3 (2022): 47-50.
 12. Abdullayeva F. Methodological possibilities of organization of primary school technology lessons with pedagogical technologies //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
 13. Abdullayeva F. Ta'lim tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli //центр научных публикаций(buxdu.uz).– 2021. –Т.3.– №. 3.
 14. Yuldasheva M.M. Development of tolerance in the history of eastern culture. SJIF Impact Factor: 7.001| ISI I.F.Value:1.241| Journal DOI:
 15. Yuldasheva M.M. The development of tolerance on the basis of national ideas and traditions in student., International Journal for Advanced Research In Science & Technology (IJARST) ISSN: 2457-0362,Volume-10 Issue-05, May 2020 (Page107-112).
 16. Yuldasheva M.M. The Development of Tolerance and Its Efficiency Based on National Traditions., Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 8, January 2021., p-63-69.
 17. Yuldasheva M.M. Development of tolerance medical pedagogical students on the basis of national traditions., Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 6, May 20 2021.
 18. Yuldasheva M.M. Ways to develop tolerance in medical pedagogical students on the basis of national traditions., Scientific progress Volume 2 | issue 6 | 2021 ISSN: 2181-1601., 1097-1102.
 19. Yuldasheva M.M. Development of Tolerance in Students of Medical Pedagogical Direction on the Basis of National Traditions., Pindus Journal Of Culture, Literature, and ELTISSN: 2792 – 1883 Vol 2 No. 2 [https://literature.academicjournal .io](https://literature.academicjournal.io)
 20. Sharipovna X. A. The problem of designing the creative activity of students in mother tongue education //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 8.
 21. Sharipovna K. A. The Role of Learning Activities in the Design of Teacher Activities in the Integration of Primary School Mother Tongue Lessons //Central asian journal of literature, philosophy and culture. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 111-114.
 22. Husenova A. S. Training of Future Teachers of Primary Classes to Guide Project Activities of Students //World science: problems and innovations. – 2021. – С. 219-221.
 23. Sharipovna H. A. Boshlang'ich sinf ona tili darslarini integratsiyalashda o'qituvchi



- faoliyatini loyihalash //Научно-практическая конференция. – 2022.
24. Sharipovna H. A. Designing Teacher Activities in the Integration of Primary School Mother Tongue Lessons //Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 149-151.
 25. Xusenova A. S. Social psychological characteristics of teacher activity in integration of mother tongue and teaching lessons in primary schools //current research journal of pedagogics. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 140-142.
 26. Sharipovna H. A. Features of the Integrated Lesson //International Journal of Culture and Modernity. – 2021. – Т. 11. – С. 306-310.
 27. Scientific and Theoretical Foundations of an Integrative Approach to the Formation of Literary Concepts in Primary School Students AY Pulatova - Middle European Scientific Bulletin, 2021. 8
 28. Psychological Characteristics of Speech Cultivation by Working on the Text in Primary School Reading Lessons
 Y Asadovna - Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 202. 437-446.
 29. Psychological characteristics of speech cultivation by working on the text in primary school reading lessons Y Pulatova - Pedagogik mahorat, 2021. 101
 30. Principles of Integration of Primary School Mother Tongue and Learning Classes Y Pulotova - International Journal of Culture and Modernity, 2022. 11.185-191
 31. Methods of working on the text in the integration of primary school reading lessons PY Asadovna - Middle European Scientific Bulletin, 2021. 11
 32. An integrative approach in speech development by working on m atn in reading lessons PY Asadovna - Middle European Scientific Bulletin, 2021. 11
 33. Пулотова Ю.А. Она тили ва ўқиш дарсларини интеграциялашда ахборот-ресурслардан фойдаланиш. // “Pedagogik mahorat” jurnali. Maxsus son. –Buxoro -2019. – В. 69-71.
 34. Пулотова Ю.А. Компетенциявий ёндашув асосида ўқиш дарсларини ташкил этиш методикаси. // “Pedagogik mahorat” jurnali. 1-son. –Buxoro -2019. – В. 117-127
 35. Po'lotova Y.A. Psychological characteristics of speech cultivation by working on the text in primary school reading lessons. // *Academicia: An international multidisciplinary research journal* <https://saarj.com> 810.5958/2249-7137.2021.00080.X. 490-501